UO‘K 81’255.2:81’37:81’42

BADIIY TARJIMADA SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV YONDASHUVLAR

D.H. Quronov

Maqolada badiiy tarjimada semantik aniqlik va kommunikativ ta’sir uyg‘unligi masalasi tadqiq etilgan. P.Nyumarkning semantik va kommunikativ yondashuvlari hamda rus tarjimashunosligidagi nazariy qarashlarga tayanib, kognitiv anglashning tarjima jarayonidagi o‘rni asoslangan. “Kecha va kunduz” romanidan olingan parchaning L.Sotserdatova, A.Ismoiliy va R.Ahmad tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, semantik muvofiqlik, kommunikativ ta’sir va milliy-madaniy xususiyatlarni saqlash darajasi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *semantik yondashuv, kommunikativ yondashuv, kognitiv anglash, tarjima ekvivalentligi, milliy-madaniy xususiyat, forenizatsiya*.

В статье исследуется проблема взаимосвязи семантической точности и коммуникативного воздействия в художественном переводе. На основе концепций семантического и коммуникативного подходов П.Ньюмарка и теоретических положений русского переводоведения обосновывается роль когнитивного понимания в процессе перевода. Посредством сравнительного анализа переводов фрагмента романа «Ночь и день» («Кеча ва кундуз»), выполненных Л.Соцердатовой, А.Исмоили и Р.Ахмадом, выявляются особенности сохранения семантического соответствия, коммуникативного воздействия и национально-культурной специфики.

Ключевые слова: *семантический подход, коммуникативный подход, когнитивное понимание, переводческая эквивалентность, национально-культурная специфика, форенизация.*

KIRISH

Asliyat va tarjima matni o‘rtasidagi munosabatni belgilash masalasi badiiy tarjima nazariyasining eng muhim nazariy muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, tarjimon oldida, bir tomondan, asliyatda ifodalangan mazmun, ma’no munosabatlari va uslubiy xususiyatlarni imkoni boricha saqlash, ikkinchi tomondan, ularni qabul qiluvchi til o‘quvchisi uchun tabiiy va ta’sirchan shaklda qayta yaratish vazifasi turadi. Shunga ko‘ra, tarjimaning semantik aniqligi va kommunikativ samaradorligi bir-biriga zid talablar sifatida emas, balki badiiy tarjima jarayonining o‘zaro bog‘liq jihatlari sifatida qaralishi lozim.

Mazkur muammo turli ilmiy maktablar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Xususan, P.Nyumark tarjima jarayonida *semantik* va *kommunikativ* yondashuvlarni farqlaydi [1. B. 38–39]. Unga ko‘ra, semantik tarjima asliyat ma’nosini imkoni boricha aniq va to‘liq saqlashga intiladi, kommunikativ tarjima esa asliyatning qabul qiluvchiga ta’sirini, tarjima tili o‘quvchisiga qayta yetkazish maqsadini ko‘zlaydi. Biroq badiiy matnga nisbatan ushbu ikki yondashuvni mutlaqo qarama-qarshi qo‘yish maqsadga muvofiq emas. Chunki badiiy asar mazmuni uning o‘quvchiga ta’siridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi. Shu bois badiiy tarjimada semantik aniqlikni saqlash vazifasi kommunikativ ta’sirni qayta yaratish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi kerak [1. B. 39–56].

Rus tarjimashunosligida asliyat mazmunini qayta yaratish va tarjima matnining ta’sirchanligi masalalari tarjima ekvivalentligi, adekvatligi, semantik muvofiqligi va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari doirasida tadqiq etilgan. A.V.Fyodorov [2. B. 374–408], Y.I.Resker [3. B. 7–37], V.N.Komissarov [4. B. 42–74], A.D.Shveyser [5. B. 76–144] kabi olimlar tadqiqotlarida tarjimani asliyatning shakliy belgilariga oddiy taqlid qilish emas, balki uning mazmuni va vazifasini boshqa til vositalari orqali qayta yaratish jarayoni sifatida tushunish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, semantik aniqlik va kommunikativ ta’sir tarjimaning bir-birini istisno qiluvchi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi talablari sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiy tarjimada semantik va kommunikativ jihatlar uyg‘unligiga erishishning birlamchi va belgilovchi sharti – tarjimonning asliyat matnini *to‘g‘ri anglashi*dir**.** Bu shart, ayniqsa, badiiy matndagi

grammatik, semantik, kontekstual va pragmatik munosabatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumla komponentlarining ma'noviy munosabatlari, gapdagi grammatik bog'lanishlar, qahramonlar o'rtasidagi munosabat, nutq vaziyati, emotsional holat va milliy-madaniy kontekst to'g'ri anglanmas ekan, asliyat mazmunini semantik jihatdan adekvat qayta yaratish imkoni qo'ldan ketadi – yo'qqa chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan *kognitiv jihat*ni tarjima jarayonining alohida strategiyasi sifatida emas, balki semantik va kommunikativ qayta yaratishni ta'minlovchi zaruriy bosqich deb talqin qilish to'g'riroq. Tarjimon dastlab asliyatda berilgan axborotni, uning ichki ma'noviy munosabatlarini va kontekstual ma'nosini anglaydi; shundan so'ng bu ma'noni tarjima tili vositasida qayta shakllantiradi va shu asnoda asliyatdagi kommunikativ-badiiy ta'sirni imkoni boricha qayta yaratadi. Bu tarz tushunilgan badiiy tarjima jarayonini shartli ravishda *"anglash – ma'noviy qayta yaratish – kommunikativ ta'sirni qayta yaratish"* silsilasida ko'rish mumkin. Bu silsiladagi "kognitiv", "semantik" va "kommunikativ" halqalarni bir-biridan qat'iy ajralgan uchta tarjima strategiyasi sifatida emas, balki bir jarayonning o'zaro bog'liq jihatlari sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Kognitiv anglash asliyat ma'nosini to'g'ri tushunishni ta'minlasa, semantik qayta yaratish anglangan mazmunni tarjima matniga ko'chiradi, kommunikativ qayta yaratish esa asliyatning o'quvchiga ta'sirini boshqa til va madaniy muhitda ta'minlashga xizmat qiladi.

Ravshanki, badiiy tarjimada *ekvivalentlik* ayrim so'z yoki gaplarning o'zaro mosligi bilan belgilanmaydi. Asliyatdagi ma'noni tarjima tilida qayta yaratish jarayonida ba'zan shakliy o'zgarishlar, leksik almashtirishlar, grammatik transformatsiyalar yoki muayyan elementlarni kompensatsiyalash zarur bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning o'zi tarjima asliyatdan uzoqlashganini anglatmaydi. Muhimi, ular asliyatning muhim ma'noviy va funksional xususiyatlarini saqlash va tarjima matnida qayta tiklashga xizmat qilishidir. Jumladan, badiiy tarjimada *milliy-madaniy xususiyatlarni saqlashg*a ham. Zero, badiiy asar muayyan til va madaniy muhitda yaratiladi va uning mazmuni faqat lug'aviy birliklar orqali emas, balki milliy realiyalar, murojaat shakllari, nutqiy odatlar, obrazlar, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlar orqali ham ifodalanadi. Shuning uchun tarjimaning rus tilli o'quvchi uchun "yaqin" va "tabiiy" bo'lishini asliyatning milliy o'ziga xosligi hisobiga ta'minlash kommunikativ samaradorlikni avtomatik ravishda oshirmaydi. Aksincha, bunday holat asliyatning madaniy va badiiy semantikasini buzishi (toraytirishi) mumkin.

Mazkur masala *madaniy jihatdan nomutanosib tillar o'rtasidagi tarjima*da ayniqsa dolzarblik kasb etadi. Nisbatan kam tarqalgan tilda yaratilgan asar katta madaniyat tiliga o'girilganda tarjimonda qabul qiluvchi madaniyat me'yorlariga moslashtirish imkoniyatlari kengayadi. Biroq bunday moslashtirish asliyatning milliy belgilari va badiiy nutq xususiyatlarini avtomatik ravishda qurbon qilish uchun asos bo'lmasligi kerak. Bunda vazifa asarni tarjima tili o'quvchisiga shunchaki "yaqinlashtirish" emas, balki *uning badiiy dunyosi va ma'noviy o'ziga xosligini boshqa madaniy muhitda qayta yaratish*dan iborat bo'ladi. Bizningcha, bu jihatdan badiiy tarjimada ko'proq *forenizatsiya* [6. B. 202–207] prinsipi – *asliyatning o'ziga xosligini saqlash va undagi badiiy informatsiyani imkon qadar to'la qayta yaratish maqsadiga ustuvorlik berish* – turli madaniyatlar orasida chinakam dialog voqe bo'lishining muhim shartidir. Aks holda, madaniyatlar muloqoti o'rniga, qanday nomlanishidan qat'i nazar, mohiyatan madaniy assimilyasiya jarayoni harakatga keladi. Bu holat esa L.Venuti bundan o'ttiz yilcha avval qayd etgan tarjimachilik amaliyotidagi tendensiyalarga yaqindir. Uning fikricha, AQSh va Birlashgan qirollikda agressiv tabiatli monolingvistik madaniyat shakllangan bo'lib, u "xorijiy matnlarga sezdirmaygina inglizzabonlilar qadriyatlarini singdiruvchi va shu orqali o'zga madaniyatda o'z madaniyatini tanib olishdek nartsistik tajribani taqdim etuvchi tezkor tarjima ("fluent translations")larga o'rgangandir" [7. B. 15]. Bu holat esa beixtiyor sho'ro jamiyatidagi yagona rus tilli madaniyat qurish harakati avj olgan o'tgan asrning 60–80-yillarini eslatadi.

MATERIAL VA USULLAR

Ushbu nazariy qarashlarga tayangan holda "Kecha va kunduz" romanidagi bir parchaning turli tarjimalarini "erkin tarjima – aynan tarjima" tarzidagi dixotomik yondashuv emas, balki *kognitiv anglash, semantik muvofiqlik, kommunikativ ta'sir va milliy-madaniy xususiyatlarni saqlash mezonlari* asosida ko'rib chiqamiz. Parcha romanning boshlanishidan, Saltanatxonning o'rtog'i Zebini qishloqqa taklif qilib kelgan paytdagi dialogdan olindi.

Asliyatda parcha quyidagi shaklda berilgan:

– Erta saharlab chopganim bekorga emas...

– Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...

– Nimaga, o'rtoqjon?

– O‘zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.

– Menam bezganman, jonim qaqa... Shu uchun bir qishloqqa chiqib kelsakmikan deb edim...

– Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku [8. B. 5–6].

L.Sotserdatova (1935) uni quyidagicha o‘girgan:

– Я не спроста прибежала к тебе с позаранку.

– Я догадалась... моё сердце дрогнуло...

– Почему, милая?!

– Ты ведь сама знаешь, какое это несчастье – свахи... Зимой им не было конца...

– Мне тоже надоели... Хочется стряхнуть с себя это. Я и думала не съездить-ли нам с тобой в кишлак?

– Что и говорить... Ведь и вода в арыках вышла из подо льда!.. [9. B. 6].

A.Ismoiliy (1989) tarjimasi:

– Я не зря прибежала спозаранку…

– Да, я почувствовала... А у меня сначала сердце сжалось.

– Отчего, дружочек?

– Вы ведь сами знаете, какая это напасть – свахи. Всю зиму шли, не переставая.

– И мне они надоели, всю душу истомили... Я и подумала, может быть, нам съездить в кишлак...

– Ах, я даже и мечтать об этом не смею! [10. B. 9].

R.Ahmad (2026) tarjimasida esa:

– Я ведь не просто так примчалась к вам, подружка, с утра пораньше...

– Уж я догадалась... Сердце мое даже замерло на мгновение...

– Почему, подружка?

– Сами знаете, из за этих сватов несчастных... Они всю зиму нам не давали покоя.

– Ох, мне тоже надоело, душа не на месте... Поэтому, честно говоря, думаю съездить хоть куда, развеяться.

– И не говорите! Пора уже, даже вода арычная уже вырвалась из-подо льда [11. B. 6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Avvalo, “**Erta saharlab chopganim bekorga emas...”** [8. B. 5] jumlasining asliyatdagi mazmuniy qurilishiga e’tibor qaratish lozim. Bu yerda *“erta saharlab”*ni oddiy payt holi sifatida tushunish asliyatdagi ma’noni to‘liq ochishga halal beradi. Saltanat ***erta saharlab*** kelganining o‘zi favqulodda holat sifatida ta’kidlanmoqda va ***“bekorga emas”*** kesimi ayni holatning muayyan sababga ega ekanligiga ishora qilmoqda. Jumla mazmunini shartli ravishda **“erta saharlab kelganim – bekorga emas”** shaklida to‘la va ochiqroq ifodalash mumkin. Bunda jumla komponentlari orasidagi sintaktik munosabat muhim: ***“Erta saharlab chopganim”*** birikmasi – ega, ***“bekorga emas”*** esa kesim vazifasida kelib, ular o‘rtasidagi predikativ munosabat gapning ma’noviy asosini tashkil etadi. Zero, Saltanat qachon kelganini emas (buni Zebi ham, o‘quvchi ham ochiq-oydin ko‘rib-bilib turibdi), balki **erta saharlab kelgani bejiz emasligini** aytmoqchi. Bu ma’no keyingi replika – ***“Men ham sezganman...”*** bilan bevosita bog‘lanadi: hali sabab aytilmagan bo‘lsa-da, Zebi Saltanatning g‘ayrioddiy paytda kelganidan bu tashrif ortida muayyan sabab borligini sezgan. Ko‘rib turganimizdek, bu yerda bir so‘z ortiq ham, kam ham emas: suhbatdoshlar bir-biriga aytmoqchi bo‘lgan (aniqrog‘i, yetkazmoqchi bo‘lgan) xabarni yetkazdi. Jumla ayni shu shaklda qurilgani harakatning “bevaqt”ligini ta’kidlab, bu bilan favqulodda sabab borligiga ishorat qiladi va Zebining “Men ham sezganman...” deyishini oqlaydi, asoslaydi. Ya’ni dialogga xos replikalararo mazmuniy va psixologik jihatdan bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Sotserdatova bu jumlani **“Я неспроста прибежала к тебе спозаранку”** [9] tarzida tarjima qilgan. Bu variantda asliyatdagi “**kelishim – bekorga emas”** predikativ munosabati orqali ifodalangan mazmun “**men sening oldingga bekorga saharlab kelmadim”** konstruksiyasi orqali ifodalangan. Jumlaga qo‘shilgan “men” olmoshining ega mavqeini olishi, “*к тебе*” o‘rin holining qo‘shilishi asliyatdagi *“erta saharlab”*ga tushgan ma’no urg‘usini siljitadi: endi “sening oldingga kelganim” ma’nosi urg‘u oladi. To‘g‘ri, ***“неспроста”*** *bekorga emas*ning ma’nosini, ***“прибежала”*** *chopganim*dagi harakat dinamikasini, “**спозаранку”** esa *erta saharlab*dagi payt belgisini aniq qayta yaratadi. Shunga qaramay, grammatik-mazmuniy munosabatlarning o‘zgarishi personaj nutqi, aniqrog‘i, shu replikaning aytilishidagi dinakmika va emotsional bo‘yog‘iga jiddiy ta’sir qiladi.

A.Ismoiliy varianti – “**Я не зря прибежала спозаранку...”** [10. B. 9] **–** asliyatning grammatik-mazmuniy qurilishiga ko‘proq yaqin keladi. Bu yerda *не зря* **–** *bekorga emas*, *прибежала* **–** *chopganim*, *спозаранку* – *erta saharlab* so‘zlariga to‘la mos. Eng muhimi, asliyatdagi *“erta saharlab kelishning bejiz emasligi”* degan mazmuniy markaz saqlangan. Shuning uchun keyingi *“Да, я почувствовала...”* javobi bilan mantiqiy bog‘lanish ham buzilmaydi.

R.Ahmad tarjimasida esa ixcham predikativ qurilish yanada kengayib ketgan: **“Я ведь не просто**

так примчалась к вам, подружка, с утра пораньше...” [11. B. 6]**.** Jumlaga *ведь* yuklamasining qo‘shilgani ma’qul – u asliyatda intonatsiya orqali ifodalangan “men axir bekorga chopmadim” degan ta’kid-kuchaytiruvni tiklashga xizmat qiladi. Lekin “**к вам”** avvalgi misolda ko‘rganimizdek ma’no urg‘usini siljitsa, “**подружка”** undalmasi replika talaffuzi tempini sekinlashtiradi. Holbuki, Saltanat bu gapni hovliqib-shoshib aytayotir, ya’ni bunday vaziyatdagi nutqda parsellyativ birliklar tamom ortiqchalik qiladi. Asliyatda “erta saharlab” bilan “chopganim” tig‘iz bog‘liq va bitishuv asosida bitta so‘z birikmasini tashkil etsa, tarjimada ularning orasiga “o‘rtoqjon” undalmasi kirib, “с утра пораньше” postpozitsiyada – ajratilgan bo‘lak maqomida joylashadi. Ajratilganlik natijasida ma’no urg‘usi paytga ko‘chadi va bu asliyatga mos, biroq oraga qo‘shilgan “o‘rtoqjon” undalmasi bundan olingan samarani yo‘qqa chiqaradi. Zero, so‘z qo‘shilishi *dialog dinamikasiga daxl qiluvchi o‘zgarish*dir.

Shunday qilib, birinchi replika tahlilidayoq uchala tarjimadagi farqlar ***“erkin tarjima – aynan tarjima”*** degan umumiy belgilar bilan izohlanmasligi ayon bo‘ladi. Tahlil tarjimada *semantik muvofiqlikni leksik birliklarning alohida-alohida muqobilligi bilan o‘lchash yetarli emasligini* ko‘rsatadi. Tarjimon, avvalo, asliyatdagi jumla komponentlarining o‘zaro munosabatini, ular orqali hosil bo‘layotgan implitsit ma’noni va bu ma’noning keyingi nutqiy vaziyatda qanday ochilishini anglashi lozim. Ana shu *kognitiv anglash* to‘g‘ri amalga oshirilgandagina semantik munosabatlarni saqlagan holda asliyatdagi dialogning kommunikativ ta’sirini qayta yaratish imkoni paydo bo‘ladi. Xullas, birinchi jumla misolidayoq *kognitiv, semantik va kommunikativ jihatlarni bir-biridan ajratib bo‘lmasligi* yaqqol ko‘rinadi.

Ko‘rib o‘tilgan replikada Saltanatning **erta saharlab kelgani bejiz emasligi** haqida ishora bergani, Zebining **“Men ham sezganman...”** degani esa ishorani darhol fahmlaganini bildiradi. Demak, bu yerda *sezganman* shunchaki “anglaganlik”ni emas, balki Zebining shu kunlardagi ruhiy holati haqida ko‘klam tasviri orqali berilgan chizgilarning davomi – qiz ko‘ngli bahordan kutayotgan bahoriy yaxshilik sog‘inchini ifodalaydi. Ya’ni g‘ayrioddiy tashrif ortidagi *muayyan ma’noni hissiy-intuitiv tarzda anglash*ni. Shuning uchun bu replikani to‘g‘ri tarjima qilish uchun *sezmoq* fe’lining lug‘aviy muqobilini topishning o‘zi kifoya qilmaydi; uning avvalgi replika bilan hosil qilayotgan *kognitiv va kommunikativ munosabati* ham saqlanishi zarur.

L.Sotserdatova bu jumlani: **“Я догадалась... моё сердце дрогнуло...”** deb bergan. *Догадаться* so‘zida yashirin yoki ochiq aytilmagan narsani aql bilan, mantiq bilan fahmlash ma’nosi kuchli. Asliyatdagi *sezganman* esa mantiqiy xulosadan ko‘ra ko‘proq sezish, ichki his bilan anglash ma’nosini beradi. Shu sababli tarjimada kognitiv komponent saqlangan bo‘lsa-da, uning hissiy-intuitiv xususiyati biroz o‘zgaradi. Ikkinchi qism – **“моё сердце дрогнуло”** – asliyatdagi **“**Yuragim bir qur seskanib ham oldi” bilan obrazli jihatdan yaqin. *Дрогнуло* fe’li yurakning lahzalik ta’sirlanishini ifodalaydi va hissiy reaksiyani qayta yaratadi. Biroq jumlaga “моё” olmoshi qo‘shilgan – bu hol esa tavtologiyaga olib kelishdan tashqari intonatsiyaga ham jiddiy ta’sir qilgan. Gap shundaki, aslida replikaning ikkala qismi, garchi yozuvda ko‘pnuqtalar bilan ajratilgan bo‘lsa-da, sabab-natija munosabati asosida bitta mazmuniy butunlikni tashkil qiladi, tarjimada shu butunlik parokanda bo‘lgan. Ayni paytda asliyatdagi “bir qur”, “ham” so‘zlari tarjimada aks etmagan. Holbuki, “bir qur” holat g‘oyat qisqa vaqt ichida va bir boragina kechganini ta’kidlaydi, ya’ni tarjima shu ma’no ottenkalarini aks ettirmaydi.

A.Ismoiliy ikkinchi replikani **“Да, я почувствовала... А у меня сначала сердце сжалось”** shaklida o‘girgan. *Sezganman*ning *почувствовала* bilan berilishi L.Sotserdatovaning “*догадалась”* variantiga qaraganda asliyatdagi ichki sezgi ma’nosiga yaqinroq. Chunki *почувствовать* ham xuddi asliyatdagi kabi **his etish, ichki sezgi orqali anglash** ma’nosini saqlaydi. Biroq jumlaning boshiga **“Да”** so‘zining qo‘shilishi o‘zini u qadar oqlamagan. Asliyatdagi **“Men ham sezganman”** jumlasidagi *ham* yuklamasi ikkala o‘rtoq ruhiy holatidagi yaqinlikni Zebi tilidan ta’kidlaydi. “**Да”** esa tasdiqlash ma’nosida, ya’ni Zebi o‘rtog‘ining bekorga chopmaganini tasdiqlaydi. Agar jumla “Я тоже почуяла...” shaklida o‘girilganida, asliyatdagi ham qiyos, ham tasdiq ma’nolari saqlangan bo‘lur edi. Replikaning ikkinchi qismi – “**А у меня сначала сердце сжалось”** esa, bir qarashda, asliyatdan yiroq ko‘rinadi. Tarjimada “avvaliga” (“сначала”), “Menda esa” (“А у меня”) kabi so‘zlar yo‘q joydan qo‘shilgani, “сжалось” so‘zining “seskanmoq”qa ekvivalent emasligi shunday o‘yga olib keladi. Biroq diqqat qilinsa, bu yerda tarjimon holat kontekstidan kelib chiqqanini ko‘rish mumkin: u Zebining “seskanish” sababini umuman birovning kirib kelishi – qizning sovchi balosidan bezib qolgani bilan bog‘liq tushunadi va shunga mos o‘giradi. Bunday tushunishda esv “avvaliga” so‘zi to‘g‘ri qo‘llangan chiqadi: Zebi “erta saharlab kelgan” sovchi deb o‘ylab “avvaliga” seskanib oladi, kirib keluvchi o‘rtog‘i ekanini bilishi uchun esa ozroq vaqt kerak bo‘ladi. *Seskanmoq* so‘zida kutilmagan ta’sirdan bir lahza cho‘chish, junbishga kelish ottenkasi bor; “**сердце сжалось”** esa ichki iztirob, xavotir yoki og‘riqni anglatadi. Bu ma’no ham yuqoridagicha tushunishga muvofiqdir. Demak, A.Ismoiliy asliyatdagi **hissiy reaksiyani, umuman, saqlagan**, ammo uning xarakterida muayyan siljish yuzaga kelgan.

R.Ahmad esa replikani: **“Уж я догадалась... Сердце мое даже замерло на мгновение...”** shaklida o‘girgan. Bunda L.Sotserdatovadagi “**догадалась”** yana qaytarilgan. Demak, *sezganman* yana **mantiqiy fahmlash** semantikasi tomon siljigan. Jumlaga “**Уж”** so‘zi qo‘shilishi bilan Zebining javobida asliyatdagiga qaraganda qat’iyroq, ishonchliroq ohang paydo bo‘ladi. Asliyatdagi **“Men ham sezganman...”** qat’iylikdan ko‘ra muloyimroq, ichki sezgiga asoslangan javobdir. “**Сердце мое даже замерло на мгновение”** jumlasida esa asliyatdagi “**bir qur”** – lahzalik holat aniqroq ifodalangan. *Замерло* so‘zi ham hissiy ta’sirni ifodalaydi, lekin *seskanib*dagi cho‘chish komponenti bunda deyarli yo‘qoladi. Natijada asliyatdagi “**yurakning bir lahza seskanishi”** o‘rniga **“yurakning bir lahza to‘xtab qolgandek bo‘lishi”** obrazi yuzaga keladi.

Shunday qilib, uchala tarjimada ham asliyatdagi **yurak obrazi** saqlangan, ammo *seskanib*ning hissiy-semantik mazmuni turlicha qayta yaratilgan: “дрогнуло”da – lahzalik ta’sirlanish, “сжалось”da – ichki iztirob va bezovtalik, “замерло на мгновение”da esa – bir lahzalik to‘xtash obrazi ustuvor. Bu farq tarjimada so‘zning lug‘aviy muqobilini tanlashdan ko‘ra murakkabroq vazifa – *asliyatdagi hissiy holatning xarakteri va intensivligini anglash hamda uni tarjima tilida qayta hosil qilish* masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Shu bilan birga, “**Men ham sezganman”** va “Yuragim bir qur seskanib ham oldi”ni birgalikda ko‘rish zarur. Birinchi qismi Zebining suhbatdoshi holatidagi ishorani **sezganini**, ikkinchi qismi esa ana shu sezish bilan bog‘liq **bir lahzalik hissiy reaksiyani** ifodalaydi. Demak, bu ikki qismning ma’noviy munosabati saqlanmasa, Zebining replikasidagi ichki harakat – *ishorani sezishdan uni hissiy qabul qilishga o‘tish* ham to‘liq qayta yaratilmaydi.

Avvalgi ikki replika o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishga e’tibor berilsa, **“Nimaga, o‘rtoqjon?”** savoli aynan Zebining **“Yuragim bir qur seskanib ham oldi”** deganiga munosabat sifatida qo‘yilgani ko‘rinadi. Demak, Saltanatxon Zebi oniy noxushlik sezganini bilgach, bu hissiy reaksiya sababini aniqlash uchun “**yuragingiz nimaga seskandi?”** savolini beradi. Ya’ni savolning kommunikativ yo‘nalishi birinchi replikaga emas, **bevosita oldingi replikada ifodalangan hissiy holatga** qaratilgan. Bu nuqta muhim, chunki dialogning mazmuniy harakati shunday qurilgan: Saltanatxon o‘zining bevaqtroq kelganiga ishora qiladi – Zebi **yuragi seskanganini** aytadi – Saltanatxon seskanish sababini so‘raydi. Demak, dialog *ishora → his qilish → hissiy reaksiya → uning sababini aniqlash* tarzida rivojlanadi.

L.Sotserdatova bu replikani **“Почему, милая?!”** shaklida bergan. Bu yerda “Почему?” savolining mazmuniy bog‘lanishi oldingi replikaning “**моё сердце дрогнуло”** qismi bilan cheklanadi. Ya’ni mazmuniy aloqa o‘zbekcha asliyatdagidek izchil mantiqiy silsila shaklida ko‘zga tashlanmaydi. Negaki, bu yerda tarjimon leksik muvofiqlik **(**Почему? - Nimaga?)ni saqlangan bo‘lsa ham, **replikalar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanish aniqligini** boy bergan. “O‘rtoqjon” so‘zining “**милая**”ga almashishida asliyatdagi murojaat shakli emas, undagi **samimiylik va yaqinlik ma’nolarini** qayta yaratish maqsad qilingan, shu bois tarjimon asliyatdagi birlikning lug‘aviy shaklini emas, uning kontekstdagi kommunikativ vazifasini ustuvor qo‘ygan.

A.Ismoiliyda savol **“Отчего, дружочек?”** shaklini oladi. Bu holda ham **“Отчего?”** savolining oldingi **“сердце сжалось”** bilan bog‘lanishi saqlanadi: Zebi yuragining siqilganini aytganidan keyin Saltanatxon uning sababini so‘raydi. Shu jihatdan dialogning ichki mantiqiy harakati buzilmagan. Yuqorida “А у меня сначала сердце сжалось” jumlasidagi o‘zgarishlar haqida aytdik. Ayni shu o‘zgartirishlar endi “Отчего?” savoli va u orqali keyingi replikaga bog‘lanadi. Ya’ni bu o‘rinda tarjima o‘quvchisiga tushunarli qilish yo‘lidan borilgan. Bu yerda **“дружочек”** asliyatdagi *-jon* bilan bog‘liq erkalash va yaqinlik ottenkasini kuchliroq saqlaydi. Ayni paytda *o‘rtoq*ning ma’nosi ham qisman qayta yaratilgan. Shu sababli mazkur variant **murojaatning ham lug‘aviy, ham kommunikativ tomonlarini birlashtirishga** intilgani bilan ajralib turadi. Biroq “*дружочек”*ning rus tilidagi erkalash ottenkasi o‘zbekcha *o‘rtoqjon* bilan aynan emas.

Rizo Ahmad tarjimasida esa “**Почему, подружка?”** shakli qo‘llangan. Bu yerda ham **“Почему?”** savoli oldingi replikadan ma’lum bo‘lgan **“сердце замерло”** tarzidagi reaksiya sababini aniqlashga qaratilgan. Demak, bu tarjimada ham savolning kommunikativ yo‘nalishi saqlangan. Shuningdek, *o‘rtoqjon*ning **do‘stona-yaqin munosabat** mazmuni ham, undagi erkalash ottenkasi ham “**подружка”** so‘zi bilan tiklangan, zero, bu so‘zshakl qizlar o‘rtasidagi yaqin muloqotga mos va shu jihatdan dialog vaziyatiga tabiiy tushadi. Albatta, asliyatdagi *o‘rtoqjon* shakli o‘zida o‘zbek nutqiy muhitiga xos bo‘lgan murojaatning ham mazmuniy, ham uslubiy xususiyatini jamlaydi. Rus tilidagi muqobillar esa asosan uning samimiylik funksiyasini saqlaydi. Demak, bu misolda kommunikativ ta’sirni saqlash bilan milliy-madaniy shaklni saqlash o‘rtasidagi tanlov yaqqol ko‘rinadi. Bunda uchala tarjimon bir xil lug‘aviy yo‘ldan bormasa-da, hammasi “o‘rtoqjon”ning mazkur kontekstdagi asosiy kommunikativ vazifasi – samimiy murojaatni qayta yaratishga harakat qilgan, shu bois ularning yechimlari asliyatdagi milliy-madaniy shaklning qay darajada saqlangani nuqtayi nazaridangina farq qiladi.

Zebi “O‘zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi” deya javob berar ekan, sababni

to‘g‘ridan to‘g‘ri ochib yubormaydi. “O‘zingiz bilgan” aniqlovchisida suhbatdoshining “sababni bilishi”ni ta’kidlash bilan birga, **“yaxshi ma’lum bu sabab sizni ham bezdirgan”** degan kontekstual ishora bor. Bu ishora **“sovchilar balosi”**ga qo‘shilib, personajlar hayotida “sovchilar” ancha vaqtdan beri asosiy tashvish ekanini ko‘rsatadi. Zero, **“sovchilar balosida”** birikmasida asosiy ma’no yuki “**balo”**ga tushib, qizlar uni ***joniga tekkan, tinchligini buzgan kulfat*** deb qabul qilishini ifodalaydi. Demak, *balosi*ni tushirib qoldirish yoki neytral ma’noli birlikka almashtirish qahramon munosabatini yumshatib yuboradi.

L.Sotserdatova replikadagi birinchi gapni **“Ты ведь сама знаешь, какое это несчастье – свахи...”** deb o‘girgan. Bir qarashda **“O‘zingiz bilgan”** birikmasi **“Ты ведь сама знаешь”** tarzida adekvat o‘girilgandek ko‘rinadi. Biroq, sinchiklabroq qaralsa, bu yerda grammatik va mazmuniy munosabatlar o‘zgarib ketganini ko‘rish qiyin emas. Asliyatda *o‘zingiz bilgan* aniqlovchi edi, tarjimada “*axir sen o‘zing ham bilasan*” shaklidagi predikatli birikma – gapga aylanadi. Natijada tarjimada Zebi “Axir, sen o‘zing ham bilasan-ku, sovchilar qanday baloligini” degan bo‘lib chiqadi va ma’no urg‘usi “sovchilar balosi”dan “o‘zing ham bilasan”ga ko‘chadi. Holbuki, Cho‘lpon uchun “sovchilar balosi”ni urg‘ulash muhim, chunki u ikkala bo‘y yetgan qizni birlashtiruvchi muhim omil: ikkisi ham tanlov huquqidan mahrum, ertasi haqidagi tasavvurlari mavhum, shundan dillari xira...

A.Ismoiliy ham bu gapni **“Вы ведь сами знаете, какая это напасть – свахи”** tarzida, L.Sotserdatovaga juda yaqin bir shaklda o‘girgan. Agar “ты” olmoshining “вы”ga almashgani va shunga mos turlanish shakllari ishlatilganini aytmasa, ikkala tarjimada gapning sintaktik qurilishi bir xil. Yutuqli tomoni – bunda *balosi* so‘zi “напасть” so‘zi bilan berilgan. Rus tilida *напасть* so‘zi yovday bostirib keluvchi, qayta-qayta boshga tushuvchi baloni anglatadi. Shuning uchun bu yerda **“sovchilar balosi”**ni o‘girish uchun tanlangan **“напасть”** so‘zi, ayniqsa, ruscha ***“какая это напасть – свахи”*** jumlasi kontekstida L.Sotserdatova qo‘llagan *несчастье* so‘ziga nisbatan asliyatdagi baholovchi va obrazli komponentga yaqinroq.

Uchinchi tarjimada gap mazmunan ancha o‘zgarib ketgan: “**Сами знаете, из-за этих сватов несчастных...”**, ya’ni o‘zbekchada “O‘zingiz bilasiz, o‘sha badbaxt sovchilar sabab-da” mazmunini beradigan shaklga kirgan. Avvalo, “сами знаете” deyilishi bilan oldingi replika – “Почему, подружка?” savoli ortiqcha bo‘lib qolmoqda. Hatto, “o‘zingiz bilasiz” deb qat’iy aytilar ekan, o‘quvchi Zebining so‘rog‘ida mantiq izlab behuda o‘ylanib qolishi ham mumkin. Asosiy farq “sovchilar balosi”ning **“из-за этих сватов несчастных”** tarzida qayta qurilganida ko‘rinadi. Asliyatda “sovchilar – balo” mazmuni ustuvor bo‘lsa, tarjimadan “badbaxt sovchilar” ma’nosi kelib chiqadi. Ya’ni endi Zebining sovchilarga munosabati ifodalangan, xolos, qizning ularni o‘zi uchun kulfat deb bilishi aks etmay qolgan.

Replikadagi ikkinchi – “**Qish ichi keti uzilmadi”** gapida *qish ichi* harakat davomiyligini, *keti uzilmadi* esa sovchilar uzluksiz kelib-ketib turganini ifodalaydi va Zebining “sovchilar – balo” deganini psixologik jihatdan asoslaydi. L.Sotserdatova buni **“Зимой им не было конца”**, A.Ismoiliy “**Всю зиму шли, не переставая”**, R.Ahmad esa **“Они всю зиму нам не давали покоя”** tarzida bergan. Shu nuqtada ham uchala tarjima o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘rinadi. L.Sotserdatova ***tugamaslik holatini*** (*“им не было конца”),* A.Ismoiliy ***harakatning uzluksizligini*** *(“шли, не переставая”),* R.Ahmad esa **harakatning ta’sirini** (“*нам не давали покоя”)* urg‘ulagan. Bu o‘rinda tarjimonlar tanlovini asliyatga monandlik mezoni bilangina baholash yetarli emas, qaysi mazmun ottenkasi ustuvorlashgani nazarga olinishi lozim. Asliyatda ikkinchi gap “sovchilar balosi”ni asoslovchi ***obyektiv holat*** – sovchilar qish bo‘yi uzluksiz kelganini bildiradi. Shu nuqtayi nazardan A.Ismoiliy varianti asliyatning semantik qurilishiga yaqinroq turishini qayd etish joiz. Ko‘rib turilganidek, tahlilimiz *“kognitiv anglash → semantik qayta yaratish → kommunikativ ta’sir”* algoritmi qanday amal qilishini yaqqol namoyish etadi: asliyatdagi ***keti uzilmadi***ni qanday anglash tarjimada qaysi komponentning oldinga chiqishini belgilagan.

Keyingi **“Menam bezganman, jonim qaqa. Shu uchun bir qishloqqa chiqib kelsakmikan deb edim...”** replikasi avvalgi “Qish ichi keti uzilmagan sovchilar balosi”ning qahramon ruhiyatidagi natijasini ifodalaydi. Saltanat o‘zi ham bu holdan bezgani va vaqtincha bo‘lsa ham qutulish niyatida bir qishloqqa chiqib kelish taklifini bildirmoqda. Ya’ni bu yerda *obyektiv holat → ruhiy ta’sir → amaliy yechim* tarzidagi ma’noviy izchillik mavjud.

L.Sotserdatovada bu qism: **“Мне тоже надоели... Хочется стряхнуть с себя это. Я и думала не съездить-ли нам с тобой в кишлак?”** shaklida. Bu yerda “shu uchun”ning sababiy bog‘lovchilik vazifasi “**Я и думала”** orqali qayta yaratilgan. Biroq **“Хочется стряхнуть с себя это”** jumlasining qo‘shilgani tufayli asliyatdagi fikr dinamikasi sovchilardan bezish bilan qishloqqa chiqish orasiga qo‘shimcha ma’noviy bosqich (ya’ni “sabab – oqibat” orasiga “niyat”) kiritilgani sababli sustlashadi. Asliyatda “Хочется стряхнуть с себя это” ma’nosi bor, lekin u kontekstual anglanadi, tarjimada hech zaruratsiz “chaynab berish” holati yuzaga kelgan.

A.Ismoiliyda: **“И мне они надоели, всю душу истомили... Я и подумала, может быть, нам съездить в кишлак...”**. Bu variantda asliyatdagi sababiy bog‘lanish ancha aniq saqlangan: sov-

chilardan bezish va ruhiy charchoqdan keyin **“Я и подумала”** orqali qishloqqa borish fikri keltiriladi. Shu jihatdan replikaning ichki mantiqiy harakati asliyatga yaqin.

Rizo Ahmad tarjimasida replika: **“Ох, мне тоже надоело, душа не на месте... Поэтому, честно говоря, думаю съездить хоть куда, развеяться”** shaklida o‘girilgan. Bu yerda “shu uchun”ni “поэтому” shaklida berish bilan sababiy munosabat ochiq va aniq ifodalangan. Biroq **“bir qishloqqa”**ning **“хоть куда”** deb o‘girilishi natijasida asliyatdagi konkret manzil (*qishloq*) umumiyroq *“qayga bo‘lsa ham”* ma’nosiga o‘zgaradi. Bu o‘rinda ham kontekstda mavjud ma’noni personaj tiliga ko‘chirishga harakat qilinganki, bu dialog tabiiyligiga putur yetkazadi. Zero, real dialogda noverbal vositalar orqali ifodalanadigan ma’nolar badiiy asarda kontekstual anglashiladi, shuning uchun buni replikaga ko‘chirish badiiyatga xilofdir. Xuddi shu gap jumlaga **“развеяться”** so‘zining qo‘shilganiga ham taalluqlidir.

Ko‘rib turganimizdek, bu replikaning mazmuniy o‘zagini “qizlarning bezgani – qishloqqa chiqib kelish fikrining sababi” degan hukm tashkil qiladi. Tarjimalardagi farq esa, avvalo, shu sababiy-ma’noviy bog‘lanish qanday anglangani, saqlangani va replika mazmuni qay darajada qayta yaratilganida namoyon bo‘ladi.

Endi parchadagi oxirgi replika – Zebining **“Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku”** deganiga o‘tamiz. Avvalo, bu yerda **“Nimasini aytasiz”** jumlasining o‘zidan oldingi va keyingi jumla bilan mazmuniy bog‘lanishi, natijada ikkala replikani bir mazmuniy butunlikka aylantirishiga e’tibor qilish zarur. Jumla oldingi gapga bog‘lanadi va bu bilan Zebi o‘rtog‘i aytayotgan iztiroblar ikkalasi uchun ham birdek ekanini, ikkisi darddosh ekanini tasdiqlaydi. Keyingi gapga bog‘lanishi esa bu fikrni metaforik tarzda quvvatlash (“ikkimiz – muz ostidagi ariq suvdek”) bilan birga, o‘rtog‘i aytgan taklifga bajonidil rozilikni ifodalaydi.

L.Sotserdatovada replika “**Что и говорить... Ведь и вода в арыках вышла из подо льда!..”** shaklida o‘girilgan, unda “**Что и говорить**” jumlasi “Nimasini aytasiz”ning tasdiqlovchi, suhbatdoshni quvvatlovchi vazifasi saqlangan. “Ariqdagi suv” metaforasi tarjimasida obrazning asosiy predmetlari ham, harakat ham saqlangan. Xullas, bunda asliyatning semantik va obrazli qurilishi ancha to‘liq qayta yaratilgan.

A.Ismoiliy tarjimasida esa replika jiddiy o‘zgarishga uchragan: **“Ах, я даже и мечтать об этом не смею!”** – unda asliyatdagi “Nimasini aytasiz...” ham, “Ariqdagi suv...” metaforasi ham saqlanmagan. Tarjimada Zebi “bu haqda hatto orzu qilishga ham jur’at etolmayman” degan bo‘lib chiqadi. Holbuki, Zebining ko‘ngli “ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga – tola-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan”ini Cho‘lpon qahramonini tilga olgan birinchi gapdayoq aytadi. Tarjimada bu gap **“Сердце Зеби, словно скованное зимой, пробудилось с первым всплеском весны, оно неистово рвалось на волю, в поля и луга”** shaklida berilganki, “*hatto orzu qilishga ham jur’at etolmayman*” deyishga hech o‘rin qoldirmaydi. Eng muhimi, bu faqat shakliy qisqartirish emas: asliyatdagi *“qish bo‘yi sovchilar tinmadi” → “ulardan bezdik” → “qishloqqa chiqib kelaylik” → “jon deyman, axir suv ham ozod bo‘ldi”* tarzidagi dialogik mantiq ham tamoman o‘zgaradi.

R.Ahmad metaforani saqlagan bo‘lsa-da, tarjimasi asliyatga mazmunan to‘la muvofiq emas: ***“И не говорите! Пора уже, даже вода арычная уже вырвалась из-подо льда”***. Avvalo, *“И не говорите!”* jumlasi suhbatdoshga to‘la qo‘shilish, fikrini quvvatlash ma’nolarini beradi va bu jihatdan asliyatga mos. Biroq o‘zbek tilida u ko‘proq “*gapir-mang-a”, “aytmang ham, a”* kabi modallik konstruksiyalariga to‘g‘ri keladiki, ularning ma’no qirralari *“nimasini aytasiz”*dan jiddiy farq qiladi. Jumladan, “nimasini aytasiz” deganda avvalgi gapni tasdiqlash bilan birga nutq predmetiga munosabat (bu o‘rinda qishloq sayohatini eshitib *orziqish, “qaniydi!”* degan zorlanish) ham aks etadi. Ya’ni tarjimada “nimasini aytasiz” asliyatda bajargan vazifa to‘la bajarilmaydi. Bizningcha, bu o‘rinda L.Sotserdatova varianti *(“Что и говорить...”)* ma’qulroq ko‘rinadi. Asliyatda bo‘lmagan *“Пора уже”* birikmasi tarjimaning oldingi replikasida “*думаю съездить хоть куда”* deyilganiga muvofiq, shuning uchun u asliyat emas, tarjima kontekstiga bog‘liq kiritilgan deyish mumkin. Ya’ni bu bilan asliyatdan uzoqlashgan oldingi replika yanada uzoqlashish – yo‘q narsaning kirib qolishiga omil bo‘lgan.

Shu nuqtada yana uchala tarjimadagi farqlarga e’tiborni tortamiz: L.Sotserdatova asliyatdagi ikkala jumlaning vazifasi va obrazini deyarli to‘liq saqlaydi; A.Ismoiliy obrazli dalilni butunlay tushirib, o‘rniga qahramonning subyektiv munosabatini qo‘yadi; R.Ahmad esa obrazni saqlagani holda matnga “пора уже” degan ortiqcha ma’noviy komponent kiritadi.

XULOSA

Yuqoridagilarni xulosalab aytish mumkinki, badiiy tarjimani “erkin tarjima – aynan tarjima” dixotomiyasi asosida baholash yetarli emas. Asliyatdagi ma’no alohida so‘z va gaplardagina emas, balki ularning kontekstual, semantik, pragmatik va badiiy munosabatlarida yuzaga keladi. Shu bois tarjimaning birlam-

chi sharti asliyatni to‘g‘ri anglash, keyin esa anglangan ma’noni tarjima tilida semantik va kommunikativ jihatdan adekvat qayta yaratishdir.

“Kecha va kunduz”dan olingan parchaning uch tarjimasi qiyosi ham buni tasdiqladi: tarjimonlar ayrim o‘rinlarda asliyatning semantik qurilishiga, ayrim hollarda esa uning emotsional-kommunikativ ta’siriga ustuvorlik bergan; ba’zi hollarda milliy-madaniy xususiyatlar saqlangan, ba’zi hollarda tarjima tili me’yorlariga moslashtirilgan. Demak, badiiy tarjima sifatini uning “erkin” yoki “aynan”ligi bilan emas, balki asliyatni to‘g‘ri anglash, ma’no va badiiy ta’sirni uyg‘un qayta yaratish hamda milliy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlash darajasi bilan baholash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. *Newmark P*. Approaches to Translation. 1st ed. – Oxford: Pergamon Press, 1981. XIII. 200. – Pp. 38–39

2. *Федоров А.В*. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ; – Москва: Издательский дом “Филология три”, 2002. – 416 с.

3. *Рецкер Я.И.* Теория перевода и переводческая практика. – Москва: Международные отношения, 1974. – 216 с.

4. *Комиссаров В*. Слово о переводе (очерк лингвистического учения о переводе). – Москва: Международные отношения, 1973. – 194 с.

5. *Швейцер А.Д*. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – Москва: Наука, 1988. – 215 с.

6. *Шелестюк Е.В., Гриценко Э.Ц.* О форенизации и доместикации в переводе и возможностях их лингвистической оценки // Вестник ЧГУ. – 2016. – № 4 (386). – С. 202–207.

7. *Venuti L.* The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London; New York: Routledge, 1995. – 366 p.

8. *Чўлпон*. Асарлар. 4 жилдлик. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – 376 б.

9. *Чулпан*. Ночи (Перевод с узбекского Л.Соцердатовой) / Российский государственный архив литературы и искусства (РГАЛИ). Ф. 613 оп. 1. Ед. хр. 5062. Л.6

10. *Чулпан Абдулхамид.* Ночь и день. Перевод с узбекского Абдулхамида Исмоили // Звезда Востока. – 1989. – № 10. – С.8–49.

11. *Чулпан Абдулхамид*. Ночь и день / Перевод с узбекского на русский язык Ризо Ахмада. – Ташкент: Kitob sayyorasi, 2026. – 336 с.

SEMANTIC AND COMMUNICATIVE APPROACHES IN LITERARY TRANSLATION

Dilmurod H. Kuronov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 83-91.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: semantic approach, communicative approach, cognitive understanding, translation equivalence, national-cultural specificity, foreignization.

The article is examined the relationship between semantic accuracy and communicative effectiveness in literary translation. The study is based on the view that these aspects should not be regarded as mutually exclusive requirements. In literary translation, preserving the meaning of the original and reproducing its communicative and artistic impact are interrelated tasks. Particular attention is paid to the role of the translator’s cognitive understanding of the original text as a necessary stage preceding semantic and communicative reconstruction.

The theoretical framework of the study draws primarily on P.Newmark’s distinction between semantic and communicative approaches to translation, as well as on the principles of translation equivalence, adequacy, semantic correspondence and communica-

tive-pragmatic adaptation developed in Russian translation studies. The article also considers the problem of foreignization and the preservation of national and cultural specificity in translation. On this basis, the study argues that the quality of a literary translation cannot be adequately assessed through the simple opposition of "free" and "literal" translation.

The material for analysis is a dialogue from Cho'lpon's novel "*Kecha va Kunduz"*and its three Russian translations: by L.Socerdatova (1935), A. Ismoiliy (1989), and Rizo Ahmad (2026). The comparative analysis focuses on the semantic structure of individual utterances, the relations between dialogue replicas, the representation of emotional states, and the preservation of culturally and stylistically significant elements.

The analysis is demonstrated that even seemingly simple lexical and grammatical choices may substantially affect the semantic and communicative structure of a literary dialogue. In the first utterance, the construction "*Erta saharlab chopganim bekorga emas"* indicates not merely the time of arrival but the unusual and purposeful nature of arriving early in the morning. Its predicative structure creates an implicit indication of a special reason, which is immediately perceived by Zebi in the following utterance. The translations reproduce this meaning with different degrees of accuracy. Similar differences are observed in the rendering of "*sezganman"*, "*yuragim bir qur seskanib ham oldi"*, "*o'rtoqjon"*, "*sovchilar balosi"* and "*qish ichi keti uzilmadi"*. The translators variously foreground logical understanding, emotional reaction, continuity of action, or the effect of the situation on the characters.

The study further shows that additions or transformations introduced by translators may alter the internal dynamics of dialogue when they make implicit contextual meanings explicit without sufficient textual necessity. Conversely, a transformation can be justified when it preserves the original semantic relation and communicative function. Therefore, translation analysis should consider not isolated lexical equivalents but the interaction of semantic, contextual, pragmatic and stylistic components.

The study concludes that cognitive understanding, semantic reconstruction and reproduction of communicative effect constitute interconnected aspects of one translation process. The most adequate literary translation is therefore not necessarily the most literal one; it is the translation that correctly understands the original and recreates its semantic structure, emotional and communicative impact, and national-cultural specificity in the target language.

References:

1. Newmark, P. (1981). *Approaches to Translation.* 1st ed. Oxford: Pergamon Press. XIII. 200. Pp. 38-39

2. Fedorov, A.V. (2002). *Osnovy obshchej teorii perevoda* (lingvisticheskie problemy). [Fundamentals of the general theory of translation (linguistic problems)]. Saint Petersburg: Filologicheskij fakultet SPbGU; Moscow: Publishing House 'Filologiya tri'.

3. Recker, Y.I. (1974). *Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika* [Translation theory and translation practice]. Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya.

4. Komissarov, V. (1973). *Slovo o perevode* (ocherk lingvisticheskogo ucheniya o perevode) [A word about translation (an essay on the linguistic theory of translation)]. Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya.

5. Shvejcer, A.D. (1988). *Teoriya perevoda: Status, problemy, aspekty* [Translation Theory: Status, Problems, Aspects]. Moscow: Nauka.

6. Shelestyuk, E.V., Gricenko, E.C. (2016). O forenizacii i domestikacii v perevode i vozmozhnostyah ih lingvisticheskoj ocenki [On foreignization and domestication in translation and the possibilities of their linguistic assessment]. *Vestnik ChGU*. No 4 (386). Pp. 202-207.

7. Venuti, L. (1995). *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London; New York: Routledge.

8. Chulpan. (2016). Asarlar [Works]. In 4 volumes. Vol. 2. Tashkent: Akademnashr.

9. Chulpan. Nochi [Nights]. Translated from Uzbek into Russian by L.Socerdatova. Russian State Archive of Literature and Art (RGALI)]. F. 613 op. 1. Unit 5062. L. 6.

10. Chulpan, A. (1989). Noch i den [Night and Day]. Translated from the Uzbek into Russian by Abdulhamid Ismoili. *Zvezda Vostoka*. No 10. Pp. 8–49.

11. Chulpan, A. (2026) Noch i den [Night and Day]. Translated from Uzbek into Russian by Rizo Akhmad. Tashkent: Kitob sayyorasi.

Muallif haqida ma'lumot:

QURONOV Dilmurod Haydaraliyevich – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: kuronov@rambler.ru